



METHODOLOGY OF TEACHING LIGHT INDUSTRY SUBJECTS IN DISTANCE LEARNING ENVIRONMENT

Mirzoyeva S. S.

Independent Researcher of the Department of Technological
Machinery and Equipment of the Bukhara State Technical University,
sayyoramirzayeva96@mail.ru

Abstract

This article is devoted to the analysis of the process of teaching light industry subjects in a distance learning environment as a socio-pedagogical problem. The development of distance learning and its effective use are gaining urgent importance in the modern education system. The article studies the possibilities of the distance learning environment, technological approaches, issues of interaction between students and teachers, and factors affecting the quality of education.

Keywords. Distance learning environment, higher education, specialized disciplines, quality of education, technological approach, communication between students and teachers.

Introduction

YENGIL SANOAT MUTAXASSISLIGI FANLARINI MASOFAVIY TA'LIM MUHITIDA O'QITISH METODIKASI

S. S. Mirzoyeva

Buxoro davlat texnika universiteti "Texnologik mashina va jihozlar" kafedrası
mustaqil tadqiqotchisi, sayyoramirzayeva96@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqola yengil sanoat mutaxassisligi fanlarini masofaviy ta'lim muhitida o'qitish jarayonini ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida tahlil qilishga bag'ishlangan. Masofaviy ta'limning rivojlanishi hamda undan samarali foydalanish zamonaviy ta'lim tizimida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada masofaviy ta'lim muhitning imkoniyatlari, texnologik yondashuvlar, talabalar bilan pedagoglar o'rtasidagi o'zaro muloqot masalalari hamda ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi omillar o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Masofaviy ta'lim muhiti, oliy ta'lim, mutaxassislik fanlari, ta'lim sifati, texnologik yondashuv, talabalar va pedagoglar muloqoti.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТОВ ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ДИСТАНЦИОННОЙ ФОРМЕ ОБУЧЕНИЯ

Mirzoeva S. S.

soiskatel kafedry "Technologicheskies mashiny i oborudovanie" Buxarskiy gosudarstvennyy texnicheskiy universitet, sayyoramirzayeva96@mail.ru

Annotatsiya

Статья посвящена анализу процесса преподавания дисциплин легкой промышленности в дистанционной форме обучения как социально-педагогической проблемы. Развитие и эффективное использование дистанционного обучения приобретает все большее значение в современной системе образования. В статье рассматриваются возможности среды дистанционного обучения, технологические подходы, вопросы взаимодействия студентов и педагогов, факторы, влияющие на качество образования.

Klyuchevye slova: Дистанционная образовательная среда, высшее образование, профильные дисциплины, качество образования, технологический подход, коммуникация студентов и преподавателей.



**WORLD BULLETIN
PUBLISHING**

Online Publishing Hub

World Bulletin of Education and Learning (WBEL)

ISSN (E): 3072-175X

Volume 01, Issue 02, November 2025



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://worldbulletin.org/index.php/1>

Jamiyatimizning rivojlangan davrida avvalgi metodik qo'llanmalar bilan cheklanib qolmasdan, unga fan-texnika yangiliklari, Internet va yuksak texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalangan holda, ta'lim jarayonini tinglovchilari uchun yanada qiziqarli va mazmunli qilib o'tish maqsadga muvofiq. Respublikamizda bugungi kunda kompyuter texnologiyalari va Internet tarmog'ini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Shunga ko'ra, ta'lim tizimidagi o'quv yurtlarida informatika va yangi axborot texnologiyalari bilan birga kasb ta'lim yo'nalishiga tegishli fanlarining o'qitilishi ham davr talabi bo'lib qolmoqda.

Xalqaro ta'lim amaliyotida masofaviy ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanib, texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarning o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulotlarda multimediyali texnologiyalaridan keng miqyosda va majmuaviy hamda foydalanish bo'yicha keng ko'lamli izlanishlar olib borilmoqda. Texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayoniga dinamik namoyishli o'quv materiallarini loyihalash, virtual ta'lim texnologiyalari vositasida amaliy va laboratoriya mashg'ulotlar tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha optimal yondoshuvlar bilan bog'liq ilmiy ishlanmalar ko'lamini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'limda mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv hamda uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual slaydlardan foydalaniladi. Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi fanini o'rganish jarayonida quyidagi yangi texnologiyalar qo'llaniladi: muammoli ma'ruzalar o'tkazish, interfaol metodlar, bahs bilan debat darslar, vaziyatli masalalarni qo'llash, axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda boshqalar. Ma'ruza bilan amaliy mashg'ulotlarda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida ta'lim hamda tarbiya jarayonini takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta'lim texnologiyalari integratsiyasini ta'minlash orqali talabalar o'quv faoliyatini rivojlantirishni sifat

jihtidan yangi darajaga ko‘tarish imkoniyatlarini oshirmoqda. Bu esa o‘z navbatida mutaxassislik fanlarni o‘qitishda virtual ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishning yangi yondashuvlarini tadqiq etish taqazo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta‘limini yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash siyosatini davom ettirish” ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada, texnika yo‘nalishi oliy ta‘lim muassasalarida mutaxassislik fanlarni o‘qitishda masofaviy ta‘lim vositalari hamda texnologiyalarini integratsiyalash asosida foydalanishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish orqali ta‘lim sifatini oshirish zaruriyati yuzaga keladi[1].

Hozirgi kunga kelib, kompyuter savodxonligi madaniyatning muhim belgisiga aylanib ulgurdi, kelajakda esa u har bir insonga qayerda, qaysi uchastkada ishlamasin zaruratga aylanadi. Shuningdek Oliy ta‘lim muassasalarida fanlarni virtual muhitda o‘qitish ham ustuvor masalaga aylangan. Demak, kompyuter ishi, kompyuterdan foydalanishga o‘rgatish eng yaqin vaqt ichida umumiy ishga aylanishi shubhasiz. Shu munosabat bilan barcha o‘quv muassasalarida, oliy o‘quv yurtlarida o‘quv tizimini yangidan isloh qilish, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqish va ularni amaliyotga keng jalb qilish, rivojlangan mamlakatlar o‘quv tizimidagi yangiliklar bilan yutuqlarni o‘rganish hamda ularni o‘zimizda tadbiiq etish maqsadga muvofiqdir.

Masofadan o‘qitish usulida o‘qituvchi hamda talaba bir-biridan masofa hamda ajralgan bo‘lsa ham, doimiy muloqot saqlanib qoladi. Bu o‘qitishni nazorat qilishning alohida usuli bo‘ladigan elektron pochta bilan Internet texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi. Masofaviy o‘qitish - sirtqi ta‘limning o‘z rivojlanish yo‘lidagi yangi kommunikatsion hamda informatsion texnologiyalarga tayangan, hamma formalari qonunlashtirilgan o‘qitishni amalga oshirishdir. Shuning uchun “Masofaviy o‘qitish” formasi “XXI asr ta‘limi” deb hisoblanmoqda. Keyingi paytlarda masofaviy o‘qitishning ijobiyiligi isbotlangan. Bu borada birinchilik uchun AQSHning NTU Milliy Texnologiya Universiteti va Buyuk Britaniyaning ochiq Universitetlari kurashmoqda. Aslida hozirgi paytda masofaviy o‘qitish bilan o‘qitish muassasalari soni ularning klassifikatsiyasini



**WORLD BULLETIN
PUBLISHING**

Online Publishing Hub

World Bulletin of Education and Learning (WBEL)

ISSN (E): 3072-175X

Volume 01, Issue 02, November 2025



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://worldbulletin.org/index.php/1>

keltirish uchun yetarlidir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ular davlat hamda nodavlat guruhlariga bo'linib, o'zlarining o'qitish xizmatini mamlakatlarning ta'lim bozorlarida harakatga keltirmoqdalar va aksincha. Biroq, bunday ko'rinisdagi o'qitishlar ko'pincha gumanitar yo'nalishdagi o'qitishlarni o'z ichiga qamrab olmoqda [8].

Masofaviy o'qitishni o'qish jarayonida qo'llash sabablari shundaki oliy o'quv yurtlarida mutaxassislik fanlarini masofaviy muhitda o'qitish ta'lim tizimida o'quv jarayonini yangidan isloh qilish, yangi informatsion texnologiyalarga asoslangan o'qitish usullarini ishlab chiqish, ularni keng joriy qilish bugunning talabidir. Bunda masofaviy ta'lim tizimini joriy qilish maqsadga muvofiqdir. 90 yillarning boshlarida Internetning keng ommalashishi, ayniqsa WWW (World Wide Web -Butun dunyo o'rgimchaklari to'ri) tizimining joriy etilishi ta'lim tizimida yangi masofaviy ta'lim tushunchasini olib keldi.

Masofaviy o'qitish - bu informatsion hamda kommunikatsion texnologiyalar - elektron pochta, internet, video konferentsiya, audio, video ma'lumotlar bilan multimedia o'quv qo'llanmalariga asoslangan uzoqdan turib o'qitish, o'rgatish usulidir. Masalan masofadan biror yangi mavzu yoki predmet bo'yicha ma'lumotlarni viloyatlardagi ixtiyoriy o'quv yurtlariga uzatish mumkin. Agar joylarda bu sohada mutaxassis bo'lmasa masofadan o'qitish yagona usuldir. Masofaviy ta'limda talabdan doimiy faoliyat interaktiv o'qitish talab etiladi. Bu esa mutaxassisning bilimi hamda qobiliyatini sifat xarakteristikasini oshiradi. Masofaviy o'qitishning texnologiya elementlari hatto yuz yillardan beri ko'rib kelinadi [3].

Bunga Rossiya tajribasidan misol qilib general A.M. Shanyavskiy nomidagi Moskva Xalq Universiteti, Naxotka shaxridagi Morexodnaya maktablarini olish mumkin. Bu yerda V. P. Chernov 1987 yili masofaviy o'qitishni joriy etgan. Ma'lumki dunyoda ilmiy izlanishlar bo'yicha axborotlar doim o'sib, ularni tahlil qilish jarayoni tobora murakkablashib bormoqda. Hozirgi zamon mutaxassisi qaysi sohada ishlayotgan, uning oldida o'zining sohasiga tegishli hodisa hamda voqealarni bilib turishi bilan bilim saviyasini doimiy ravishda oshirib borishini talab etmoqda[4].

Zamonaviy axborot texnologiyalari vositalarini ta'lim jarayoniga kirib kelishi



an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli masofaviy o'qitish yaratilishiga omil bo'ldi. Masofaviy ta'limda talaba bilan o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa bilan internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladilar. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya hamda o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi. Masofaviy o'qitish barcha ta'lim olish istagi bo'lganlarga o'z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o'qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o'quv-uslubiy materiallarni o'zlashtiradi, nazoratdan o'tadi, o'qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa "virtual o'quv guruhi" talabalari bilan muloqotda bo'ladi. Ma'lum sabablarga ko'ra, ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlarida tahsil olish imkoniyati bo'lmagan, masalan, sog'ligi taqoza etmaydigan, mutaxassisligini o'zgartirish niyati bo'lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo'lgan kishilar uchun masofaviy o'qitish qulay o'qitish shakli hisoblanadi [5].

Masofaviy o'qitishda turli xil axborot texnologiyalaridan foydalaniladi, ya'ni har bir texnologiya maqsad hamda masala mohiyatiga bog'liq. Masalan, an'anaviy bosma usuliga asoslangan o'qitish vositalari (o'quv qo'llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferentsiyalar ma'lum vaqt orasida o'zaro muloqotda bo'lishga, elektron pochta to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishga, ya'ni xabarlarni jo'natish va qabul qilishga mo'ljallangan. Oldindan yozilgan videoma'ruzalar talabalarga ma'ruzalarni tinglash va ko'rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o'zaro teskari aloqa orqali o'qitish imkonini beradi. Yuqoridagilarga asoslanib, ta'lim jarayonida ayni vaqtda qayta-qayta tilga olinayotgan ayrim terminlar tavsifi bilan ta'riflarni keltirish mumkin.

Masofaviy o'qitish eng yaxshi an'anaviy hamda innovatsion metodlar, o'qitish vositalari bilan formalarini o'z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta'lim singari axborot texnologiyalariga asoslangan ta'lim formasidir. Masofaviy o'qitish – bu



yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta'lim tizimidir. U ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va ta'lim qonun-qoidalari asosida o'quv shart-sharoitlari hamda o'qituvchi bilan muloqotni ta'minlab berib, o'quvchidan ko'proq mustaqil ravishda shug'ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o'qish jarayoni ta'lim oluvchini qaysi vaqtda hamda qaysi joyda bo'lishiga bog'liq emas. Bulardan ko'rinib turibdiki, oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarni virtual ta'lim muhiti allaqachon kirib kelgan. Ammo mutaxassislik fanlarni masofaviy ta'lim muhitida o'qitish haligacha o'z yechimini topmagan, shu boisdan mutaxassislik fanlarini o'qitish uchun masofaviy ta'lim muhitiga o'tish ya'ni to'liq axborot texnologiyalariga o'tish samarali hisoblanadi. Ayniqsa yengil sanoat sohasida virtual muhitni kengroq yoritib borish juda ko'p mehnat hamda tinimsiz mehnat talab etadi [2].

Kadrlar kasbiy tayyorgarligining turli jihatlarini takomillashtirishga doir tadqiqotlar va elektron ta'lim resurslari, axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari hamda ularni ta'lim jarayoniga qo'llash masalalari bo'yicha mamlakatimiz olimlari R.H.Djuraev, U.I.Inoyatov, Z.K.Ismailova, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, A.R.Xodjaboev, SH.S.SHaripov, SH.E.Qurbonov, A.Abdugodirov, U.SH. Begimqulov, A.Haitov, F.M.Zakirova, M.Aripov, J.A.Hamidov, O.X.Turakulov, N.I.Taylaqov va boshqalarning ishlarida o'z aksini topgan. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida ta'limni axborotlashtirish muammolari tadqiqi, ta'lim amaliyotiga, kasbiy faoliyatga ta'lim texnologiyalarni, shu jumladan, masofaviy va elektron ta'lim texnologiyalarini joriy etishning turli jihatlarini A.A.Andreev, I.G.Zaxarova, E.S.Polat, I.V.Robert va boshqalarning ishlarida yoritilgan. Oliy ta'lim tizimida axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish muammolari xorijiy davlatlar olimlaridan E.Backer, M.Ahmed, M.Camacho, N.Rizk, D.Wallace va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha o'rganilgan [7].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki – masofaviy o'qitish bugungi kunda nafaqat yengil sanoat mutaxassislik uchun balki, o'quv maskanlarining barcha sohalariga uchun zarur, bugungi kundagi globalizatsiyalash jarayonida katta korxonalariga, muassasalarga o'zlariga mutaxassislar tayyorlashda, ularni qayta tayyorlashda,



ularning bilim darajalarini bilan ko'nikmalarini yuqori darajada ushlab turishda muhim o'rin tutadi. Virtual o'qitishni qo'llagan holda aholining umumiy bilim darajasini va bu bilimning sifatini oshirish imkoni mavjud. Aholining barcha qatlamlarini bilim olishdagi ixtiyoriy talablarini qondirish mumkin bo'ladi. Bilimlarni o'z vaqtida keng aholiga tarqatish imkoni mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-37-son Farmoni
2. Akhmedov, B. A., & Khasanova, S. K. (2020). Public education system methods of distance in education in development of employees. *Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 1(1), 252-256.
3. Akhmedov, B. A. (2020). O razvitiі navыkov interaktivnykh onlayn-kursov v distantsionnykh usloviyax sovremennogo obshchestva (model-programma dlya prepodavateley obrazovatelnykh uchrejeniy). *Universum: texnicheskie nauki*, 12 (81), 11-14.
4. Yusupov, M., Akhmedov, B. A., & Karpova, O. V. (2020). Numerical Simulation of Nonlinear Vibrations of Discrete Mass with Harmonic Force Perturbation. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent*, 10 (4), 71-75.
5. Samieva SH. X., Usmonova G. X. Nauchnye napravleniya razvitiya tvorcheskix i intellektualnykh sposobnostey molodeji //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2022. – T. 2. – №. 4. – S. 35-38.
6. Samieva SH. X. INNOVATSIONNOE RAZVITIE PROEKTNYKH NAVЫKOV UCHAYXSYA NA OSNOVE KREATIVNOGO PODXODA //MU ALLIM O'G'M ZLIKSIZ BILIMLENDIRI². – S. 209.
7. Olimov, S., Samiyeva, S., Ibragimov, U. B., Mirzoeva, S., & Sharopov, S. (2024, December). Methodology for Developing Students' Information and Communication Competence in the Process of Distance Learning in the Modern Educational Environment. In *International Workshop Hybrid methods of modeling and optimization in complex systems* (pp. 305-318). Cham: Springer Nature Switzerland.



**WORLD BULLETIN
PUBLISHING**

Online Publishing Hub

World Bulletin of Education and Learning (WBEL)

ISSN (E): 3072-175X

Volume 01, Issue 02, November 2025



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://worldbulletin.org/index.php/1>

8. https://lib.utu-ranch.uz/media/files/2024/07/30/Oliy_va_professional_talimda_mutaxxasisliki.pdf.
9. https://www.researchgate.net/publication/348916562_MASOFAVIY_TA'LIM_TIZIMI